

TARBIYA FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIVLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKILLANTIRISH

Utemuratov Ali Bayrambay uli

Navoiy davlat universiteti

shet tillar fakulteti talabasi

Annotatsiya. *Maqola boshlang 'ich sinf tarbiya fanini o'qitishda o'quvchilarining fanga oid kompetensiyalarini, rivojlantirish yo'llari ko'rsatilgan. Shuningdek, tarbiya darslarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalalari yoritilgan.*

Kalt so'zlar: *tarbiya, kompetensiya, kommunikasiya, ijtimoiy, bilim, dars jarayoni, kreativ, o'quv dasturi.*

Аннотация. В статье показаны пути развития компетенций учащихся при преподавании начальных педагогических наук. Также вопросы формирования коммуникативной компетенции освещаются на учебных занятиях.

Ключевые слова: образование, компетентность, коммуникация, социальное, знание, учебный процесс, творчество, учебная программа.

Annotation. The article shows the ways of developing students' competencies in teaching elementary pedagogical sciences. In addition, the issues of the formation of communicative competence are covered in the classroom.

Key words: education, competence, communication, social, knowledge, educational process, creativity, curriculum.

Inson o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning echimini hal etishi, eng muhimi, o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari, ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 yanvardagi «Xalq ta'limi sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzuluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4963-sonli qarori qabul qilindi. Qarorda umumiy o'rta ta'limni tashkil qilishning ilmiy-uslubiy va amaliy-texnologik asalarini yaratish, milliy ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqish va tajriba sinovdan o'tkazish vazifalari berilgan.

Tarbiya fanini o'qitishda o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish kerak. Ularning kreativ fikrlashga yo'naltirish talab etiladi. Dars jarayonida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olishi zarur.

Kelajagimiz bo'lgan farzandlarimizni rivojlangan davlatlarning bolalari singari va ular bilan raxobatlashadigan darajada ta'lim –tarbiya jarayonida tayanch kompetentsiyalarni shakillantirishda o'qituvchilarga yangicha yondashmoq davr talabi bo'lib qolmoqda. Umumta'lim maktablarida tarbiya fani darslarida zamonaviy metodlardan qaysi kompetentsiyalar o'quvchilarda shakillanganligini tahlil qilinib, mavzu rejada belgilangan metod va usullarning darsda qo'llash qiyin bo'lganliklarini aniqlanib ularni trening shaklida o'zlariga amalda qo'llansa bo'ladi.

Rasmiy ta'limning birlamshi asosi dars hisoblanadi. Dars, o'z navbatida, bir butunlik bo'lib, quyidagi qisimlardan tashkil topgan: ta'lim-tarbiya beruvchi: ta'lim-tarbiya oluvchi: dastur va darslik, o'quv-uslubiy qo'llanma hamda didaktik materiallar; pedagogik usul va uslublar, o'qitishning texnik vositalari. Tarbiya darslarini o'qitish samaradorligiga erishish uchun o'qitishning didaktik ta'minotini yaratish mexanizmlari ham muhim ahamiyatga ega. Didaktik ta'minotni yaratish mexanizmlariga kreativ yondashuvni tashkil etish o'quvchilarni tanqidiy, tahliliy yoki ijodiy fikrlash va aniq ma'lumotlarga asoslangan bilimlarga ega bo'lishlarini amalga oshiradi.

O'qituvchining ko'p qirrali va murakkab faoliyati zahirida yosh avlodni odobli, axloqli qilib tarbiyalash, ularni bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi [Mavlonova R., To'raeva O., Xoliqberdiyev K. "Pedagogika" 27 bet]. Mamalakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bir qatorda bugungi kunda ta'lim tizimining rivojlanib borishi zamon talabiga mos ta'lim-tarbiyaga qaratilganligida. O'qituvchining o'z ustida ishlashi, muntazam malakasini oshirib borishi, tinmay izlanish olib borishi hamda, o'quv jarayonini zamon talablari darajasida, ilmiy asosda tashkil etish uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda, kommunikativ kompetentsiyaga da ega bo'lishi lozim.

Tarbiya fanini o'qitishda o'quvchilarning dunyoqarashlarini o'zida mujassam etishi, ularning atrof muhit bilan bog'liq holda jamiyatda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan o'z munosabatini bildirish olishi va mustaqil qaror qabul qila olishi kerak. Kommunikativ kompetensiya o'quvchini o'z oldiga qo'ygan maqsad vazifalariga erishish traektoriyasini belgilab, o'quv jarayoni va boshqa faoliyatda o'zini anglash mexanizmini shakllantiradi. O'quvchining jamiyatda o'z o'rnini topa olishi ushbu mexanizm bilan bog'liq bo'ladi.

Ta'lim jarayonining muvaffaqiyoti tarbiya fani bo'yicha pedagog tomonidan taqdim etilayotgan o'quv materiallarini tayyorlashga iyodiy yondashishlari talab etiladi. Bunda ular o'quv materiallarini samarali shakillantirishda g'oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, o'quv axborotlarining izchil bayon etilishi, o'quv axborotlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, o'quvchilarning yosh xususiyatiga mosligi, amaliy ahamiyatga egalik, aniq maqsadga yo'naltirilganlik hamda estetik talablarga

muvofiglik kabi tamoyillarni inobatga olishi o'quv jarayonining sifatli metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi.

Tarbiya fani darslarida kommunikativ kompetentsiyani shakllantiriladi. O'qituvchi tomonidan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topish, ma'lumotlar bazasini yaratish mustaqil to'play olish, ularni tahlil etish, baholash, axborotni qayta ishlash va ularni uzatish, asosiylarini tanlab olish belgilab olinadi. To'plangan materiallar o'quvchilarga etkazib beriladi. o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetentsiyani rivojlantiriladi.

O'rganilayotgan material mazmuni, sinf o'quvchilarining umumiy tayyorgarligi, o'qituvchilarning pedagogik mahorati, darsda qo'llaniladigan metodlardan qat'iy nazar o'quvchilarda idrok etish, esda saqlash tezligi turlicha bo'ladi [Сафарова Р., Мусаев У., Мусаев П., Юсупова Ф., Нуржанова Р. Ўзбекистон “Республикасида умумий ўмумий ўрта таълим стратегияси муаммолари ва таълим мазмунининг янги моделлари, уларнинг татбиқ этиш йўллари” 199 bet]. O'quv jarayonida o'quvchilarda kommunikativ kompetentsiyalarni shakllantirish uchun o'quvchilarning o'quv materiallarni o'zlashtirish tezligidagi mustaqil ishlash natijasida egallagan bilimlar darajasi, qiziqishlari va boshqa farqlarini inobatga olishi muhim. Shuningdek, maktab o'qituvchisi malaka oshirish jarayonida urgangan zamonaviy metodlardan dars jarayonida muntazam qo'llanib borishi talab etiladi.

Tarbiya fanining o'quv dasturi o'quvchilarda kompetentsiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan. O'quv dasturida o'quvchilarda fanga doir nutqiy va kommunikativ kompetentsiyalarni hamda kompetentsiyalarning elementlarini shakllantirish ko'zda tutilgan. Maktab o'qituvchilari har bir dars jarayonida o'quvchilarda kommunikativ kompetentsiyalarni shakllantirib boradi.

Tarbiya fanida o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda o'qituvchi oldindan katta tayorgarlik bilan dars ishlanmalarini tayyorlashda, metod va usullarni tanlab, ko'proq ijodiy yondashishlari darkor. O'quvchilarida kompetentsiyalarini shakllantirishda samarali metodlarni yaqshi o'rganib bolalarning yosh xususiyatlariga va o'tiladigan mavzuning mazmuniga mos tanlay olishi kerak. Mavzu bo'yicha malaka oshirish davrida urgangan metodlarning to'g'ri tanlanishi o'quvchilarda kommunikativ kompetentsiyalarni shakllantirishda asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Demak, tarbiya darslarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslarda tashkil etish, o'qituvchi va o'quvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish asosida o'quv jarayonlarning sifat va samaradorligini ta'minlashdan iborat bo'ladi. O'qituvchilar zamonaviy yondashuvlarga asoslanadigan, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lgan, o'zini-o'zi va o'z faoliyatini o'zi tahlil qiladigan, muntazam malaka oshirib boradigan, mustaqil izlanadigan va obektiv baholay oladigan, boy falsafiy va

ma'naviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va tashkiliy texnologik salohiyatga ega bo'lishi zarur. Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish orqali o'quvchilarning kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirishi talab etiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 yanvardagi «Xalq ta'limi sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzuluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4963-sonli qarori.

2. Mavlonova R., To'raeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. O'qituvchi, Toshkent 2010 yil, 495 bet.

3. Сафарова Р., Мусаев У., Мусаев П., Юсупова Ф., Нуржанова Р. Ўзбекистон Республикасида умумий ўмумий ўрта таълим стратегияси муаммолари ва таълим мазмунининг янги моделлари, уларнинг татбиқ этиш йўллари, Тошкент, Фан, 2005, 255 бет.